| Shaxs tizimidagi karakterologik aksentuatsiyalar suitsidal xulq-atvorni paydo qiluvchi psixologik omil sifatida | 531 |
| Eshqulov Shavkat Rustam o’g’li | |
| Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarini tayyorlashda pedagogik innovatsiyalar xususiyatlari | 536 |
| Muxayyo G’ulomovna Muminjonova | |
| Maktabgacha ta’limda bolalar bilan innovatsion texnologiyalar yordamida ekologik omillarni singdirish | 540 |
| Xoldorova Mashxura G’ulomovna | |
| Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining konfliktologik komponentlarini rivojlantirish | 544 |
| Xadicha Muxammadiyeva Karomatovna, Zaripova Xolida Baxtiyor qizi | |
| Boshlang’ich sinf matematika darslarida “5E” modeli asosida ta’lim jarayonini tashkil etish tamoyillari | 549 |
| Karimova Sevara Shaxriddin qizi | |
| XIX asr Qo’qon adabiy muhitida hajviyot badiiyati (Muqimiy, Zavqiy, Furqat, Qoriylar ijodi misolida) | 552 |
| Abduraximova Zuxroxon Soyibjon qizi | |
| Ta’lim tizimida pedagoglarning stressga bardoshlilikini oshirishning innovatsion yondashuvlari | 557 |
| Usanova Bahoroy Eshpo’lat qizi | |
| Дидактические возможности искусственного интеллекта в дифференцированном обучении младших школьников | 562 |
| Мухтарова Лобар Абдиманнабовна, Шихназарова Сайёра | |
| Nutq madaniyatini rivojlantirishga yo’naltirilgan mashqlar va topshiriqlar tizimi | 566 |
| Muxtarova Lobar Abdimannabovna, Chorshanbiyeva Mahliyo Sherali qizi | |
| Interaktiv metodlar orqali raqamli savodxonlikni rivojlantirish | 571 |
| Jahonova Xolida G’anisher qizi | |
| Badiiy pedagogika va virtual muzey integratsiyasi asosida talabalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlar tizimini rivojlantirish | 576 |
| D. N. Adilova, M. A. Irgashova | |
| Badiiy matnda takror qurilmalarning qo’llanishi: “Otamdan qolgan dalalar” romani misolida | 579 |
| Gulzoda Uzoqova Ramazonovna | |
| Raqamli turizm texnologiyalari asosida boshlang’ich sinf o’quvchilarida madaniy-ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish modeli va metodik ta’minoti | 584 |
| Ismatova Dilorom Hotam qizi | |
| Ijtimoiy tarmoqlarning o’smirlar o’z-o’zini baholashiga psixologik tasiri | 589 |
| Karatayeva Zamira Zakrulla qizi, Anvarova Muslima Boburjon qizi | |
| Ichki va tashqi motivatsiyaning talabalar faoliyatidagi roli | 594 |
| M. K. Muradova | |
| Talabalarda ehtimoliy tafakkurni rivojlantirishda cheksiz o’lchamli stoxastik operatorlar dinamikasidan foydalanishning didaktik imkoniyatlari | 596 |
| Madina Rasulova | |
| Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish metodikasi | 600 |
| Mallayeva Gulshada Maxmudjonovna, Kurbanov Fazliddin Batirovich | |
| O’quvchilarning mustaqil ishlash qobiliyatlarini rivojlantirish texnologiyalari | 604 |
| Mamadaliyeva Barnoxon Ibragimovna | |
| Tibbiy-pedagoglarda akmeologik yondashuv asosida pedagogik madaniyatni shakllantirishning tarkibiy qismlari, mezonlari va ko’rsatkichlari | 606 |
| Xayitova Shahnoza Daniyarovna | |



SHAXS TIZIMIDAGI XARAKTEROLOGIK AKSENTUATSIYALAR SUITSIDAL XULQ-ATVORNI PAYDO QILUVCHI PSIXOLOGIK OMIL SIFATIDA

Eshqulov Shavkat Rustam o'g'li
 Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Shaxs xarakter aksentuatsiyalari va suitsidal xulq-atvor namoyon bo'lishi o'rtasidagi ijtimoiy-psixologik qonuniyatlar hamda o'zaro korrelyatsion bog'liqliklar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida xarakter aksentuatsiyasining ayrim turlari (gipertim, distim, siklotim va qo'zg'aluvchan tiplar)ning shaxsning inqirozli vaziyatlardagi xulq-atvor strategiyalari hamda suitsidal xavf darajasiga ta'siri empirik jihatdan o'rganilgan. Subyektlarning xarakterologik xususiyatlarini hisobga olgan holda suitsidal moyillikni barvaqt aniqlash va ta'lim muassasalarida inqirozli intervensiya (profilaktika) ishlarini samarali tashkil etishga qaratilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: refleksivlik, psixoterapiya, suitsidal tendensiya, suitsident, subyekt, depressiya, shizofreniya, ekstremal vaziyat, stimuly, stress, maksimalizm, antisuitsid, demonstrativlik, pedantlik, affektivlik.

Abstract: Socio-psychological patterns and correlational relationships between personality accentuations and manifestations of suicidal behavior were analyzed. Within the framework of the study, the influence of specific types of character accentuations (hyperthymic, dysthymic, cyclothymic, and excitable types) on behavioral strategies in crisis situations and the level of suicidal risk was empirically investigated. Scientific and methodological recommendations aimed at the early identification of suicidal tendencies and the effective organization of crisis intervention (prevention) activities in educational institutions, taking into account the characterological characteristics of subjects, were developed.

Key words: reflexivity, psychotherapy, suicidal tendency, suicide attempter, subject, depression, schizophrenia, extreme situation, stimulus, stress, maximalism, antisuicide, demonstrativeness, pedantry, affectivity.

Аннотация: Проанализированы социально-психологические закономерности и корреляционные взаимосвязи между акцентуациями личности и проявлениями суицидального поведения. В рамках исследования эмпирически изучено влияние отдельных типов акцентуаций характера (гипертимический, дистимический, циклотимический и возбудимый типы) на поведенческие стратегии личности в кризисных ситуациях и уровень суицидального риска. Разработаны научно-методические рекомендации, направленные на раннее выявление суицидальных склонностей и эффективную организацию кризисной интервенционной (профилактической) работы в образовательных учреждениях с учетом характерологических особенностей субъектов.

Ключевые слова: рефлексивность, психотерапия, суицидальная тенденция, суицидент, субъект, депрессия, шизофрения, экстремальная ситуация, стимул, стресс, максимализм, антисуицид, демонстративность, педантичность, аффективность.

KIRISH

O'z joniga qasd qilish insonda o'z hayotini tugatish maqsadi mavjud emasligining tasdig'i degan nisbatan xavfli fikr mavjud bo'lib, biroq dalillar o'z joniga qasd qilishga uringan bir qancha insonlar qayta suitsidal harakatlarni sodir etganligini ko'rsatadi.

Tadqiqotchilar ma'lumotlariga ko'ra, suitsidal harakatlarni sodir etgan yoshlarning 40 % ga yaqini anamnezida bir yoki bir necha marotaba o'z joniga qasd qilishga uringan. Suitsidga birinchi urinish sodir etilgandan keyingi bir yil mobaynida holatlarning 30 % ida ushbu harakat qayta sodir etilgan, shundan 1–2 % insonlar suitsid natijasida halok bo'lgan. O'z joniga qasd qilish harakatini sodir etgan ko'pchilik shaxslarni o'z maqsadlaridan qaytarishga ishontirish mumkin. Ko'p hollarda inson o'lishni istamaydi, balki vaziyatni va uning atrofida vujudga kelgan sharoitni o'zgartirishga urinadi. Takroriy suitsidal harakatlarning takrorlanishini oldini olish uchun psixoterapevtik ta'sir ko'rsatish imkoniyati mavjud. Bunda mutaxassisdan suitsidni ichki nizoni bartaraf etish vositasi sifatida tushunish, suitsident uchun esa o'zining suitsidal tendensiyasini refleksivlashtirish qobiliyati talab etiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'z joniga qasd qilishni istagan shaxslarning o'z niyatlarini bildirishlari masalasiga nisbatan qarama-qarshi qarashlar mavjud. C.R. Pfeffer ma'lumotlariga ko'ra, o'z joniga qasd qilishga nisbatan to'g'ridan to'g'ri fikr bildirish suitsid xavfini aniqlashga nisbatan past ko'rsatkichga ega bo'lib, o'z joniga qasd qilish bilan tahdid qiluvchi shaxslarning faqat 3–5 % igina yashashni xohlamasliklarini ishonch bilan bildiradi.

R. Pavsey va O. Krupmska ma'lumotlariga ko'ra, o'z joniga qasd qilishga qadar insonlar hayotlarini o'z joniga qasd qilish orqali yakunlash istaklari haqida tez-tez ochiq tarzda fikr bildiradilar. O'z joniga qasd qilishni sodir etgan har o'n kishidan to'qqiz nafari o'z niyatlari haqida ma'lum qilgan bo'lib, ovoz chiqarib bildirilgan istak bilvosita ifodalangan holatlarga nisbatan osonroq anglashiladi va shuning uchun omon qolish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi.

E. Grollman va E. Shneydmanlar suitsidentlarning qariyb 90 % ida namoyon bo'ladigan quyidagi belgilarni ajratib ko'rsatadilar:

1. **Verbal** – o'lim istagi haqida bildirish (to'g'ridan to'g'ri, masalan: "Men o'z hayotimni o'z jonimga qasd qilish orqali tugatishni istayman", bilvosita, masalan: "Men uxlashni va qayta uyg'onmaslikni istayman").
2. **Noverbal** – suitsidning so'nggi tayyorgarlik bosqichini amalga oshirish ko'p hollarda yuridik hujjatlarni tayyorlashni (masalan, vasiyatnoma) yoki shaxsiy mulkni, jumladan sevimli kitoblar yoki markalar kolleksiyasini boshqalarga sovg'a qilishni o'zida aks ettiradi. Bunda insonning xulq-atvori yo'nalishini birinchi qarashda sababsiz o'zgartirishiga alohida e'tibor qaratish lozim.

Subyekt hayotda quvnoq va faol insondan odamovi, autik, o'z ichki dunyosiga g'arq bo'lgan, xushko'rmas shaxsga aylanishi mumkin. Xotirjam va vazmin insonlar hayot uchun xavf bilan bog'liq bo'lgan ekstremal vaziyatlarni izlay boshlaydilar.

1. **Vaziyatli** – aniq bir vaziyat bilan shartlangan holatlar (ajralish, yaqin kishining vafoti, jinsiy zo'ravonlik, moliyaviy inqiroz va boshqalar).
2. **Psixologik buzilishlar** – depressiya, shizofreniya va boshqa ruhiy buzilishlar, somatik kasalliklar (onkologik kasalliklar va boshqalar) yoki inson holati bilan bog'liq omillar (alkogol, giyohvand moddalar va boshqalar).

Har qanday holatda suitsidal tahdid va suitsidal tendensiyaning mavjudligi xavf tug'diradi, shu sababli ularga alohida e'tibor qaratish talab etiladi.

Suitsidologiya asoschilaridan biri E. Shneydman suitsidning o'nta umumiy psixologik xarakteristikasini ajratib, ularning izohini bergan:

- suitsidning umumiy maqsadi yechim topish hisoblanadi;
- suitsidning umumiy vazifasi idrok etishni to'xtatish;
- suitsidni sodir etishda chidab bo'lmas psixik (ruhiy) og'riq, yuqori ta'sirchanlik holati umumiy stimullar bo'lib xizmat qiladi;
- psixologik ehtiyojlarning frustratsiyalanishi suitsid paytida umumiy stress omili bo'ladi;
- umumiy suitsidal emotsiya sifatida o'zgarish va chorasizlik namoyon bo'ladi;
- suitsidga nisbatan ichki umumiy munosabatni ambivalentlik tashkil etadi;
- suitsid paytida psixikaning umumiy holati kognitiv sohaning torayishi, tafakkurning rigidligi va "tunnel tafakkur" orqali namoyon bo'ladi;
- suitsiddagi umumiy harakat nimadandir qochish hisoblanadi;
- suitsiddagi umumiy kommunikativ harakat o'z niyati haqida ma'lum qilishdir;
- suitsidal harakatning hayotdagi umumiy xulq-atvor tarziga mos kelishi umumiy qonuniyatni tashkil etadi.

A. Lenars esa suitsid va suitsidentlarni izohlashda qo'shimcha tavsiflarni ajratib ko'rsatadi:

- suitsidentning o'zini o'ziga, qat'iyatsiz va moslasha olmaydigan shaxs deb hisoblashi sababli moslashuv qobiliyatining pastligi;
- suitsident egosining shikastlantiruvchi hayotiy hodisalar (yo'qotish, inkor etilish, muvaffaqiyatsizlik, ishonchning suiiste'mol qilinishi) sababli zaiflashishi;
- suitsidentlarning boshqa odamlar bilan o'zaro munosabatlarni o'rnatish va ularni saqlab turishda qiyinchiliklarga duch kelishi;



- suitsidning markaziy mavzusi yo'qotish va inkor etilish bo'lib, bu o'z navbatida og'riq va autoagressiyaga olib kelishi;
- suitsidentning yo'qotilgan yoki uni inkor etuvchi shaxs bilan, shuningdek yo'qotilgan ideal (sog'liq, yoshlik, ish, erkinlik) bilan kuchli identifikatsiyalashuvi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida shaxs tizimidagi karakterologik aksentuatsiyalarning suitsidal xulq-atvor shakllanishiga ta'sirini aniqlash maqsadida ma'lumotlarni yig'ishning psixodiagnostik va empirik usullaridan foydalanildi. Tadqiqot ishtirokchilarining xarakter xususiyatlarini aniqlash uchun xarakter aksentuatsiyalarini tashxis qilish metodikalari hamda suitsidal xavf darajasini baholashga qaratilgan standartlashtirilgan so'rovnomalar qo'llanildi. Respondentlardan olingan ma'lumotlar tizimlashtirilib, ularning xarakterologik ko'rsatkichlari va suitsidal moyillik darajalari o'rtasidagi bog'liqliklar statistik jihatdan tahlil qilindi. Olingan natijalarni qayta ishlash jarayonida tavsifiy, qiyosiy va korrelyatsion tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, aksentuatsiya turlarining suitsidal xavf omillari bilan o'zaro aloqadorlik darajasi aniqlanib, natijalar umumlashtirish va ilmiy talqin qilish asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shaxs xarakterologik xususiyatlarining suitsidal xulq-atvor shakllanishidagi determinantlik rolini aniqlash maqsadida jami 357 nafar sinaluvchidan iborat tanlanmada empirik tadqiqot olib borildi. Tadqiqotning uslubiy negizini shaxs xarakter aksentuatsiyalarini tashxis qilish metodikalari hamda M.V. Ruzayevaning "Suitsidal xavf darajasini aniqlash" so'rovnomasi tashkil etdi. Olingan empirik ma'lumotlarning o'zaro korrelyatsion va statistik tahlili xarakterning muayyan aksentuatsiya tiplari bilan suitsidal moyillik ko'rsatkichlari o'rtasida qonuniyatli va uzviy bog'liqliklar mavjudligini ko'rsatdi (1-jadval). Quyida ushbu o'zaro aloqadorliklarning miqdoriy va sifat tahlili natijalari keltirilgan.

1-jadval: **Xarakter aksentuatsiyasi va Ruzayevaning "Suitsidal xavf so'rovnomasi" o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion bog'liqlik (N=357)**

| | Namoyishkorlik | Affektivlik | Noyoblik | Muvaffaqiyatsizlik | Ijtimoiy pessimizm | Madaniy to'siqlarni buzush | Maksimalizm | Vaqt istiqboli | Antisuitsidal omil |
|--------------------------|----------------|-------------|----------|--------------------|--------------------|----------------------------|-------------|----------------|--------------------|
| Demonstrativ tip | 0,575** | 0,345** | 0,060 | 0,023 | 0,324** | -0,094 | -0,357** | 0,062 | -0,398** |
| Karaxt tip | -0,029 | 0,049 | -0,005 | 0,129* | -0,037 | 0,004 | 0,014 | -0,032 | 0,013 |
| Pedant tip | 0,062 | 0,066 | 0,516** | -0,076 | 0,305** | -0,369** | -0,056 | 0,428** | -0,018 |
| Qo'zg'aluvchi tip | 0,545** | 0,375** | 0,044 | -0,050 | 0,057 | -0,101* | -0,289** | 0,066 | -0,266** |

Demonstrativ tip vakillarida suitsidal xatti-harakatlar ko'pincha manipulyativ xarakterga ega bo'ladi. Ular haqiqatda hayotdan ko'z yumishni emas, balki atrofda g'ildiraklarning e'tiborini jalb qilishni, ularni qo'rqitishni yoki o'ziga nisbatan achinish hissini uyg'otishni maqsad qiladilar. Shuning uchun namoyishkorlik ko'rsatkichi bilan suitsidal xavf o'rtasida to'g'ridan to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Demonstrativ tip va affektivlik ($r=0,345$; $p<0,01$) o'rtasida musbat korrelyatsiya mavjud bo'lib, ushbu tip vakillari hissiyotlarga juda beriluvchan, ularning kayfiyati tashqi ta'sirlarga o'ta sezgir bo'ladi. Ularning affekti (hissiy portlashi) kuchli bo'lsa-da, ko'pincha barqaror emas. Kichik bir e'tiborsizlik ularda kuchli affektiv reaksiyani yuzaga keltirib, suitsidal ko'rinishdagi harakatlarga turtki berishi mumkin.

Demonstrativ tip va ijtimoiy pessimizm ($r=0,324$; $p<0,01$) o'rtasida musbat korrelyatsiya mavjud bo'lib, ijtimoiy pessimizm odatdagi tushkunlikdan farq qiladi. Bu holat ularning jamiyatdan charchaganidan emas, balki "mening qadrimga yetishmayapti" degan subyektiv xulosasidan kelib chiqishi mumkin.

Demonstrativ tip maksimalizm ($r=-0,357$; $p<0,01$) va antisuitsidal omil ($r=-0,398$; $p<0,01$) bilan manfiy korrelyatsiyani namoyon qiladi. Bu holat demonstrativ tip vakillari suitsidal xavf guruhiga kirganida ularda hayotni

asrab qoluvchi ichki tormoz tizimi, antisuitsidal omillar va real natijaga yo'naltirilgan irodaning sust bo'lishini ko'rsatadi. Ularning suitsidal xavfi ko'pincha e'tibor qidirishga yo'naltirilgan bo'lsa-da, aynan antisuitsidal omillarning sustligi kutilmagan baxtsiz hodisalarga yoki ehtiyotkorlikning yo'qolishiga olib kelishi mumkin. Bu esa profilaktik ishlarda ularning ichki qadriyatlarini mustahkamlash zarurligini ko'rsatadi.

Karaxt tip vakillari va muvaffaqiyatsizlik shkalasi o'rtasida ($r=0,129$; $p<0,05$) musbat korrelatsiya mavjud bo'lib, muvaffaqiyatsizlik hissi ular uchun eng xavfli suitsidogen omil hisoblanadi. Ularda suitsidal xavf demonstrativ tip vakillaridagi kabi namoyishkorona emas, balki ichki umidsizlik va yashash ma'nosining yo'qolishi natijasida yuzaga keladigan haqiqiy suitsidal moyillik xarakteriga ega bo'lishi mumkin.

Pedant shaxslar o'zlarining hayotiy prinsiplari, axloqiy me'yorlari va ish yuritish uslublarini o'ta yuqori baholaydi. Shu sababli noyoblik shkalasi bilan ($r=0,516$; $p<0,01$) musbat korrelatsion bog'liqlik mavjud. Ushbu noyoblik hissi ijobiy o'z-o'zini baholash emas, balki "men bu dunyoga begonaman" degan kognitiv pozitsiyani shakllantiradi. Inson o'zini boshqalardan psixologik jihatdan ajratgan sari unda subyektiv yolg'izlik hissi ortadi. Ijtimoiy izolyatsiya va o'zini hech kimga o'xshamaydigan yoki tushunilmaydigan deb hisoblash eng asosiy xavf omillaridan biri bo'lishi mumkin.

Pedant tip va ijtimoiy pessimizm o'rtasidagi ($r=0,305$; $p<0,01$) musbat korrelatsiya pedant tip vakillarining qat'iy algoritm va tartib asosida ishlashi zarurligini ifodalaydi. Jamiyatdagi tasodifiyliklar, insonlarning mas'uliyatsizligi va ijtimoiy adolatsizliklar pedant shaxsning ichki barqarorligini buzadi. Natijada ular atrof-muhitni tuzatib bo'lmas darajada buzilgan deb baholay boshlaydi. Bu pessimizm ularni "bunday tartibsiz dunyoda yashashning ma'nosi yo'q" degan radikal xulosaga olib kelishi mumkin. Ya'ni, ularning suitsidal xavfi depressiv tushkunlikdan ko'ra ko'proq dunyoga nisbatan e'tiroz (protest) xarakteriga ega bo'lishi mumkin.

Qo'zg'aluvchan tip va namoyishkorlik o'rtasidagi musbat ($r=0,545$; $p<0,01$) korrelatsion bog'liqlik qo'zg'aluvchan tipning tipik xususiyatini ochib beradi. Ushbu turdagi inson uchun namoyishkorlik atrof-dagilardan o'ch olish, ularni aybdor his qilishga majburlash yoki o'z hukmini o'tkazish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Namoyishkorlik ko'rsatkichi yuqori bo'lishi ularning suitsidal harakati ko'pincha tomoshabinlar (yaqinlari, hamkasblari) oldida yoki ularga saboq berish maqsadida sodir bo'lishidan dalolat beradi.

Qo'zg'aluvchan tip vakillarida agressiya bilan bevosita musbat ($r=0,375$; $p<0,01$) korrelatsiya mavjud. Ushbu holatni suitsid bilan bog'lashda tashqi agressiyaning (boshqalarga baqirish, urish) juda tez autoagressiyaga, ya'ni o'ziga zarar yetkazishga aylanishi mumkin bo'lgan holatlar nazarda tutilishi maqsadga muvofiqdir.

Qo'zg'aluvchan tip va madaniy to'siqlarni buzish shkalasi o'rtasida ($r=-0,101$; $p<0,05$) manfiy korrelatsiya mavjud. Ushbu bog'liqlik quyidagicha izohlanadi: qo'zg'aluvchan tip vakillari tabiatan impulsiv va agressiv bo'lib, ular o'z xohish-istaklarini jilovlashga qiynaladilar. Demak, shaxsda qo'zg'aluvchanlik qanchalik yuqori bo'lsa, unda madaniy to'siqlar shunchalik zaiflashadi, ya'ni ular ushbu to'siqlarni buzishga moyil bo'ladi. Madaniy va axloqiy tormozlarning pasayishi suitsidal harakatni amalga oshirishga bo'lgan ichki qarshilikni kamaytiradi. Inson o'zini jilovlay olmagani sari suitsidal xavf ortishi ehtimoli kuchayadi.

Qo'zg'aluvchan tip va antisuitsidal omil shkalasi o'rtasidagi manfiy korrelatsion bog'liqlik ($r=-0,266$; $p<0,01$) quyidagicha izohlanadi: ushbu tip vakillari ko'pincha egotsentrik bo'lib, nizoli vaziyatlarda o'zgalarning his-tuyg'ularini va yaqinlarining kechinmalarini hisobga olmaydilar. Ularda affektivlik kuchaygani sari antisuitsidal omillar, ya'ni hayotni saqlab turuvchi qadriyatlar o'z ta'sirini yo'qotadi. Impulsivlik va agressiya shaxs ongining torayishiga olib keladi. Bunday holatda inson oilasi yoki kelajagi haqida yetarlicha o'ylay olmaydi, natijada himoya omillari pasayib, suitsidal xavf ko'rsatkichi ortishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan ilmiy-empirik tadqiqotlar va ularning matematik-statistik tahlili shaxs xarakterologik xususiyatlari hamda suitsidal xavf dinamikasi o'rtasidagi uzviy determinatsion qonuniyatlarni ochib berishga xizmat qildi. Shaxs arxitektonikasidagi o'ziga xosliklar va inqirozli holatlardagi destruktiv reaksiyalar o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilish natijasida quyidagi fundamental xulosalarga kelindi.

Shaxs xarakter aksentuatsiyalari suitsidal xulq-atvor shakllanishida shunchaki fon funksiyasini bajar-masdan, balki og'ir ijtimoiy-psixologik vaziyatlarda subyektning affektiv reaksiyalarini belgilab beruvchi ichki psixologik determinant vazifasini o'taydi.

M.V. Ruzayeva metodikasi orqali olingan suitsidal xavf ko'rsatkichlari xarakterning muayyan tiplari bilan yuqori darajadagi korrelatsion bog'liqlikni hosil qildi. Xususan, distim, qo'zg'aluvchan va affektiv-labil aksentuatsiyaga ega bo'lgan shaxslarda inqirozli vaziyatlardan chiqishning suitsidal strategiyalarini tanlash tendensiyasi yuqori ekanligi va bu jarayon 357 nafar respondentdan iborat umumiy tanlanmada yaqqol dominantlik qilishi empirik jihatdan isbotlandi.

Aksentuatsiyalangan shaxslarga xos bo'lgan psixologik rigidlik (fikrlash va xulq-atvor moslashuvchanligining pastligi) hamda emotsionallik va umidsizlik holatlari ijtimoiy-psixologik dezadaptatsiyani tezlashtiradi. Mazkur jarayon shaxs psixikasida suitsidal xavf darajasining barqaror o'sishiga zamin yaratadi.



Tadqiqot davomida olingan natijalar shaxs xarakterining tipologik xususiyatlarini hisobga olgan holda suicidal moyillikni barvaqt tashxis qilish tizimini yaratish imkonini beradi. Bu esa ta'lim muassasalarida profilaktik ishlarni hamda inqirozli intervensiya strategiyalarini individual-differensial yondashuv asosida maqsadli loyihalashning metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Pfeffer C.R. The Suicidal Child. – New York: Guilford Press, 1986. – 318 p.
2. Ефремов В.С. Основы суицидологии. – Санкт-Петербург: Диалект, 2002. – С. 156–160.
3. Шнейдман Э. Душа самоубийцы / пер. с англ. Г. П. Костюка. – Москва: Смысл, 2001. – 315 с.
4. Старшенбаум Г.В. Суицидология и кризисная психотерапия. – Москва: Когито-Центр, 2005. – 376 с.
5. Ланжиль Д.Б., Эсбридж. Суицидальное поведение у подростков в Новой Шотландии, Канада: защитные ассоциации с показателями социального капитала // Социальная психиатрия и психиатрическая эпидемиология. – 2012. – Т. 47. – № 10. – С. 1549–1555. [DOI]
6. Блэкмор Э.Р., Манс С., Веллер А. Психосоциальные и клинические корреляты суицидальных действий: результаты национального опроса населения. – Кембридж: Издательство Кембриджского университета, 2018.
7. Эшкулов Ш. Религиозные убеждения как основной фактор, ограничивающий суицидальные наклонности личности // Журнал "Научно-практические исследования ученых Узбекистана". – 2025. – № 6 (18). – С. 351–357.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №5(4)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.